



Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi milliy qadriyatlar badiiy talqini

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
filologiya va san'at fakulteti 1-bosqich Olimova Yasmina

Filologiya fanlar doktori (DSc)

Pirnazarova Manzura

Matnazarovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada XXI asrning yorqin namoyandasi, qalami o'tkir ijodkorlardan biri bo'lgan serg'ayrat adib Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi milliy qadriyat va urf-odatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu romanda patriarxal konsept, urush davrining ijtimoiy transportatsiyasi, qadriyatlar konsepsiyasi, psixologik sodiqlik, zamonaviylik va an'anaviylikning uyg'unlashuvi, oilada ota-onaga, er va xotinga bo'lgan ishonch va ijtimoiy axloq tamoyillari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: patriarxal konsept, milliy mentalitet, urush davrining ijtimoiy transportatsiyasi, psixologik sodiqlik, zamonaviylik va an'anaviylikning uyg'unlashuvi, ijtimoiy axloq tamoyillari.

Аннотация: В данной статье будут проанализированы национальные ценности и традиции, заложенные в романе "отец" яркого деятеля XXI века, одного из ярких творцов пера сергайрата Адиба Улугбека хамдама.отация: В данной статье будут проанализированы национальные ценности и традиции, заложенные в романе "отец" яркого деятеля XXI века, одного из ярких творцов пера сергайрата Адиба Улугбека хамдама. В этом романе также рассматривается патриархальная концепция, социализм.

Ключевые слова: патриархальная концепция, национальный менталитет, социальный перенос военного времени, психологическая верность, сочетание современности и традиционализма, принципы социальной морали.



Annotation: this article analyzes the national values and traditions of the brilliant 21st century figure, Serge adib Ulugbek Hamdam, one of the sharp creators of his pen, in his novel “father”. nnotation: this article analyzes the national values and traditions of the brilliant 21st century figure, Serge adib Ulugbek Hamdam, one of the sharp creators of his pen, in his novel “father”. The novel also deals with the patriarchal concept, the social transportation of .

Keywords: pariarchal concept, national mentality, social transportation of the war era, psychological loyalty, harmonization of modernity and tradition, principles of social ethics.

1. **Kirish.** Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Ulug‘bek Hamdamning ushbu asarida millatning o‘ziga xosligi va madaniy merosini saqlab qoluvchi, jamiyat a‘zolarining xulq-atvori, dunyoqarashi hamda hayot tarzini belgilovchi barqaror ma‘naviy-axloqiy tizimni o‘z asarida akslantiradi. Milliy mentalitet – bu xalqning dunyoni idrok etish uslubi, qadriyatlar tizimi va axloqiy me‘yorlari majmuasidir. Ko‘plab publitsistik mavzudagi maqola, she‘riy hamda nasriy asarlarida ma‘naviy-marifiy chuqur falsafiylikka ega bo‘lgan asar millatning aslida qanday bo‘lishi kerak ekanligini ta‘minlaydi. “Ota” romanidagi obrazlar talqini va u yerda shakllangan urf-odatlarining o‘ziga xosligi ham asarni qiziqarli tarzda milliy ruhini boyitishga ko‘mak qiladi. Asar qahramonlari hayotiy tajriba asosida yaratilgan va ulardagi his-tuyg‘u kechinmalar to‘liq o‘z aksini topgan. Shuningdek, asar orqali yozuvchi o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, urf-odatlari, an‘nlari va qadriyatlarini zamonaviy tarzda ochib beradi, qadriyatlarning chuqur talqin qilinishi, o‘zbekona xarakter uyg‘unlashuvi, har bitta obraz orqali milliylikni akslantiruvchi o‘ziga xos qarashlar muvjud.
2. **Metadalogiya.** Muallifning ta‘kidlashicha, roman qahramonlarining ismlari, ularning ma‘nosi va asardagi taqdiri bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi[1]. Mazkur dalillar orqali qahramonlarning xarakteri, jamiyat bilan munosabati yoritiladi. “Ota” romani o‘sha ba‘zi oilalarda unutilayotgan qadriyatlarni tiklash, ota shaxsining ma‘naviy timsoli, oilaga mehr, vijdon va insoniylik belgilarini o‘zida mujassam etadi. Otaning sabr-toqati, farzand tarbiyasiga bo‘lgan mas‘ulyati, ya‘ni o‘zbek oilaviy qadriyatlari timsolidir. Shu bilan birga, aslida ota qizini qanday tarbiyalashi kerak va xato ish qilganida qanday yo‘l tutish kerak



ekanligi ko'rsatilgan, biroq bu yo'ldan borish muammoga to'g'ri yechim bo'la oladimi?.. Obrazlar va psixologik tahlilda Dilshod Mo'minov va Nigora Kriyigitova boshchiligidagi izlanishlarida asarning bosh qahramonlari Po'lat va Yog'du obrazi ruhiyati, ulardagi barcha hislatlar to'liq o'rganilgan. Ularning fikricha, "inonning ichki dunyosini tavsiflash" da ularning bir-biriga bo'lgan muhabbati muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Bu romanda zamonaviy oila ya'ni tabiatning buzilishi ota qizini o'ldirish sahnasi ochiqqlangan. Mazkur sahna tashqi omil ta'siri orqali qizning naslsiz o'tishini oldini olsa, boshqa tarafdin ota uchun bu isnod, shariyat tomonidan yo'l qo'yilmagan "valadi zino" talqinida asarda gavdalantiradi. Ota keying avlodni bunday ish qilmasliklarini va barcha uchun qadriyatlarining muhim ekanligini ko'rsatish uchun o'z qizini qotili bo'ladi.

3. **Muhokama va natijalar.** Asar "Barcha otalarga bag'ishlanadi" kabi jumla bilan romanning asl mohiyatini o'quvchilarga bildirishdan boshlangan. Buning ma'nosi shundayki, Po'latning qiziga, oilasiga bo'lgan harakati, ularni har doim to'la to'kis yashashlari uchun, g'am chekmasliklari uchun tinmay kurashgan ota timsolida gavdalangan. Muallifning asosiy maqsadi ham barcha otalar uchun deb boshlanishi ham haqiqiy hayotdagi otalarning oilasi, farzandlari uchun qanday inson ekanliklarini ifodalashdan iboratdir. Ushbu asarni o'qiganlarning xulosalari ko'pchilik farzandlari otasiga mehr qo'yishga, e'zozlashga undagan. Chunki asarda shunday oila, ota farzand munosabatlari, er va xotinga, ota va onaga qanday munosabatda bo'lish kerak, milliy to'y, udumlar, qadriyatlar haqida juda ham keng ma'lumotlar keltirilgan. Asarda keltirilgan ushbu jumlar, ya'ni farzandni onaga qarshi bormasligi va hurmat qilishi kerakligi uchun barchaga o'rnak bo'luvchi muallifning izohi: "Po'lat onaizorning daxshat to'la ko'zlariga qarab turarkan, ich-ichidan bir titroq keldi-yu, shuning to'liqiniga taslim bo'lgancha og'zidan qanday qilib rozilik degan so'zi chiqib ketganini bilmay ham qoldi"[3] Bu yerda onasi uni uylantirishni xohlardi va Po'lat bunga qarshilik qilmadi, ammo u urushga yozdirilib qo'ygandi, shunda ham onasining ra'yiga qarshi bormaganligi haqida yozuvchi esa milliy mentalitetga xos bo'lgan an'anani ko'rsatib bergan. Bundan tashqari oilada pariarxal konsept (oilada ota boshchiligi asosida oiladagi qadriyatlarining saqlanishi) ko'rsatib berilgan. Asarning tub mohiyati ham shundaki, Zamonaviy hayot tarzida yashab, milliylikni o'tganlarni yodlab, ular qoldirgan an'analarni targ'ib qilish haqida yozilgan. Po'lat juda ham ko'p qiyinchiliklarni boshdan



kechiradi, urush davri transportatsiyasi uni oilasiga bo'lgan mehrini yanada orttirgan va qadrlashni o'rgatdi. Po'lat urush qanday bo'ladi, achhiq-chuchugigacha, suyak-suyagigacha his qildi, chunki urush boshlangan payt o'zbek urush qatnashchilariga qilingan nohaqlik, ya'ni "Po'lat ilk xarbiy ishlarning qanday olib borilayotganini kuzatarkan, to'rt kishiga bitta miltiq berilishi, bittasi o'qdan o'lsa, ikkinchisi miltiq uchun o'zini o'qqa tutishga majbur edi". U hayollarga cho'mgan holda "Urush degani inson hayoti bilan o'ynashish degani ekanmi?", deb o'ylay boshladi[2]. Yog'du unga xiyonat qilmay uni kutgani psixologik sodiqlikni saqlagani va chin oila qadriyatiga misol bo'la oladigan sahna tasvirlangan. Keyingi qiyinchilik farzandsizlik azobi, oradan ancha vaqt o'tib farzandli bolsa-da, o'z kasbi o't o'chiruvchilik bo'la turib o'z uyiga o't ketganda narigi xonada yotgan qizini olovdan saqlab qolib bilmagan azob uni tamoman bitirdi. Bundan tashqari sinfdoshi Eriboyning qilmishlari, haqsizlik sari intilishlari har bir gunogh ishi o'ziga qaytgani haqida so'z borgan va nomardlarcha Po'latning uyiga o't qo'gan va barcha ko'rguliklar mana shu kundan keyin sodir bo'lganligi ifodalangan. "Yana osuda osmon ostida" nomi bilan boshlangan bobda ham bir qancha mudhish voqealarga guvoh bo'lish mumkin va buning natijasida yuzaga kelayotgan muammolar bilan Po'lat otaning oilasi yana bitta mudhish voqeani qarshi olishadi. Yagona qizi bo'lmish Sevinch ulg'ayib turmush qurolmay qolgani, yuzi tufayli juda ham ko'p qiynalgani akslantirilgan. Shunda ham Po'lat ota unga g'amxo'rlik qildi, ammo Sevinch otasining yuziga oyoq qo'ydi. U bo'lish istagida turmush qurdi va buni oatsidan yashirdi. Otasi uni nikohsiz farzand orttirganda ayblab, uni o'ldirdi. Ota so'ngida afsuslanadi, qilmishidan xotini va qizini tinglamaganidan, insonlarning gap-so'zlariga qarab o'z oilasini yo'q qilganidan qattiq afsuslanadi, biroq unda enndi nevara bor, Yodgor bor edi. Po'lat ota qismatidan xulosa chiqarib, shunday deydi: "Ey Yaratgan Egam, menga bergan hayotingning qizimga bergan yuzing kabi ikki yuzi bor ekan: bittasi g'oyat go'zal, sevimli bo'lsa, ikkinchisi esa, qizimning olovda kuygan badbashara holga kelgan yuzidek kishini o'ziga itarar ekan".[4] Po'lat ota faqat hayotdan ko'z yumushni o'ylab yurgan kezlarida, uning nevarasi Yodgor paydo bo'ldi va unda endi hayotga boshqacha ko'zlar bilan qarash, muzlagan qalbida iliqlik paydo bo'lgan edi. "Uning qalbida endi yana Yog'du bor, ko'zining oq-u qorasi, sulolasini davom etishga sababchi bo'lgan, hayotiga ma'no-mazmun olib kirgan yakka-yu yagona qizi – Sevinch bor. Ha-ha, bor! Endi bor! Kecha yo'q edi, bugun



bor!”[5]. Yodgorjon Po‘lat otaning oilasiga bo‘lgan mehrini qaytarishga sababchi bo‘lgan yagona nabira edi.

- 4. Xulosa.** So‘ngso‘z o‘rnida aytish joizki, hayot qanchalik achchiq bo‘lmasin, unda yashash, qaysi yo‘ldan yurish bevosita insonning o‘ziga bog‘liq. Po‘lat ota nima qilmasin, undagi g‘urur bunday isnodga chidashga yechim bo‘la olmadi. Milliy urf-odatlarimizdan biri bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan azaliy qadriyatimiz or-nomus masalasining toptalishi otaning o‘z qizi qotiliga aylantirdi. Yog‘du onaning o‘limi ham, Sevinchning o‘limi ham tabiat muvozanatini buzilishi orqali ro‘y berdi va bu buzilishdan Yodgor, murg‘ak go‘dak onasiz qoldi. Ulug‘bek Hamdam yaratgan bu asar ramziy va badiiy uslubi bilan o‘zbek adabiyotiga katta burilish olib keldi va tarixiy kontekstni zamonaviy uslubda kengaytirishga ega “Ota” romanini yaratdi. Xususan, Miraziz Komilov ham o‘z maqolasida romandagi ota obrazida uning ruhiyatini, oiladagi roli va milliy urf-odatlardagi o‘rnini alohida ta’kidlagan[5]. “Ota” romanida an’anaviylik va oilaviy qadriyatlarning badiiy talqini o‘zbek xalqining ma’naviy olamini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Asarda psixologik tahlilning chuqurligi hamda obrazlar tizimida milliy urf-odatlarning badiiy aks ettirilishi zamonaviy adabiyotda qadriyatlar muammosining nazariy talqinini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi ismlarga munosabat | International Conferences[771:775]
- 2.Ulug‘bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2022-yil [208:26]
- 3.Ulug‘bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2022-yil [208:28]
- 4.Enternational Journal of Education, Social scirnce & Hunanities.
- 5.Ziyonet (www.ziyonet.uz) - O‘zbek adabiyoti va ulug‘bek Hamdam haqida ilmiy maqolalar.
6. Ulug‘bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2022-yil [208:203].
7. Ulug‘bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2022-yil.Bitdi 2018-2019[208-206].